

“O‘zbek davlatchiligi tarixida Qadimgi Xorazm” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi

Yurtimizda qadimdan rivojlangan davlatchilik an‘analarini, mintaqada kechgan tarixiy jarayonlarning mohiyati va o‘ziga xosliklari, madaniy, ma‘naviy merosimizning jahon sivilizatsiyasida tutgan o‘rni va ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazish, ilmiy-tadqiqot natijalarini mutaxassis olimlar bilan muhokama qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Xorazm viloyati hokimligi bilan hamkorlikda Xorazm Ma‘mun akademiyasida “O‘zbek davlatchiligi tarixida Qadimgi Xorazm” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi.





Konferensiyada O'zbekiston va Qoraqalpog'istonning yetakchi ijtimoiy fan vakillari bilan bir qatorda AQSh, Turkiya, Rossiya, Tojikistondan ham mutaxassislar ishtirok etdilar.

Konferensiyada olimlar tomonidan mintaqamiz qadimdan ma'naviyat va ma'rifat o'chog'i bo'lganligi, Xorazm davlatchiligi tarixiga oid arxeologik materiallarni yangicha yondashuvlar asosida tadqiq etish, mintqa tarixinni o'rganishda zamonaviy metodologiyalarni qo'llash, tarixiy yozma manbalarda Xorazm vohasiga doir ma'lumotlarni tahlil etish, mintaqadagi tarixiy jarayonlarni aniq ilmiy dalillar bilan asoslantirish kabi masalalar muhokama qilindi.

Konferensiya sho'balari quyidagi ilmiy masalalar yechimiga yo'naltirildi:

O'zbekiston tarixining qadimgi va antik davrida quyi Amudaryo hududlari;

O'zbekiston tarixida davlatchilikni shakllanishida quyi Amudaryo hududlarining o'rni;

O'rta asrlarda Xorazm

Xorazm Ma'mun akademiyasining dunyo tamaddunidagi o'rni;

Xiva xonligining davlatchilik institutlari va ijtimoiy-siyosiy hayot.

Xorazm vohasi G'arb va Sharqni tutashtiruvchi yirik xalqaro savdo yo'llari o'tgan hudud bo'lgani bois tarixning barcha davrlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy taraqqiyotda muhim rol o'ynagan.

Xorazm dunyo sivilizatsiyasi va madaniyatiga bebaho hissa qo'shgan Sharq gavharidir. Bugungi kunda biz Yangi O'zbekistonni barpo etish maqsadida o'zgarish va yangilanishlar yo'lini qat'iyat bilan davom ettirmoqda ekanmiz, qadimiy tarixga, sivilizatsiyaga, madaniyatga ega bo'lgan zaminimiz o'tmishini ilmiy o'rganish va jahonga namoyish etish O'zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imijini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.